

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



«...DOLAYMAN»

...at sharqshunoslik

...rektori

...sava

2024-yil

**23.00.04 – “XALQARO MUNOSABATLAR, JAHON VA MINTAQA  
TARAQQIYOTINI SIYOSIY MUAMMOLARI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA  
TAYANCH DOKTORANTURA “MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL  
IMTIHONI DASTURI**

**Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib  
chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnoma)**

**Tuzuvchilar:**

Sh.A.Yovqochev - siyosiy fanlar doktori, professor

D.I. Madaminova – siyosiy fanlar doktori, dotsent

**Taqrizchilar:**

N.A.Qosimova - siyosiy fanlar doktori, professor

S.A. Jo‘rayev - siyosiy fanlar doktori, professor

## KIRISH

Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotini siyosiy muammolaribo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish gumanitar yo'nalishdagi dissertatsion tadqiqotlarni amalga oshirishning asosiy shartlaridandir. Bunday bilimlar umuminsoniy tsivilizatsiyaning yutuqlari va tajribasini o'zlashtirish, umumbashariy qadriyatlar mohiyatini idrok etish, tegishli ilmiy muammolarning tarixiy-siyosiy ildizlarini ilg'ab olishga ko'maklashadi. Har qanday ilmiy izlanishning muvaffaqiyati dunyo mamlakatlarining ro'y berayotgan xalqaro siyosiy jarayonlar tahlilini sog'lom idrok etish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur ma'noda Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotini siyosiy muammolarisohasining asosiy vazifasi dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyutsiyasining asosiy bosqichlari to'g'risidagi yaxlit tasavvurni shakllantirishdan iboratdir.

Dissertatsion tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilar Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixining tegishli bosqichlarida ro'y bergan eng muhim voqealar, xalqaro jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan omillar, tarixiy rivojlanish jarayonida turli mamlakatlar va mintaqalarda namoyon bo'lgan o'ziga xosliklar, ularning o'zaro bog'liqligi, jahon siyosatining umumiy qonuniyatlarini yaxshi bilishlari talab etiladi.

**Dasturning maqsadi: 23.00.04 - Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotini siyosiy muammolari** ixtisosligi bo'yicha Mutaxassislik fanlaridan imtihon dasturi Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotini siyosiy muammolariva genezisi, hozirgi holati va mohiyatiga oid nazariy va amaliy bilimlarni baholash maqsadida yaratilgan.

### **Dasturning vazifalari:**

- Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotini siyosiy muammolariva genezisi;
- xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatning hozirgi holati va mohiyati;
- O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishtiroki;
- mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining shakllanishi va hozirgi holati;
- xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolari va ularni hal etish mexanizmlariga oid nazariy va amaliy bilimlarni baholash.

## ASOSIY QISM

### **Xalqaro munosabatlarda kechayotgan siyosiy jarayonlar va ularning tendensiyalari**

Shakllanayotgan yangi siyosiy tartibot. Jahondagi yetakchi davlatlar – siyosiy aktorlar va faol geosiyosiy ishtirokchilar. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash jarayoni muammolari. Bir, ikki va ko'p qutblilik yondoshuv. Atlantizm, evropatsentrizm, evrosiyochilik.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar borasidagi zamonaviy konsepsiyalar. Zamonaviy siyosatshunoslikda jahon siyosati va xalqaro munosabatlar muammolari. G'arb siyosatshunoslari S.Krasner, S.Louson, J.Xobsonlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar xususiyatlari to'g'risidagi xulosalari, "xalqaro

munosabatlarni yumshatish” g‘oyasining mohiyati. “Dunyoni boshqarish” borasidagi g‘oyalar va ularning nazariy asoslari (J.Nay, R.Koxeyn, G.Alison). G‘arb siyosatshunosi X.Bull tomonidan ilgari surilgan xalqaro globallashuv va dunyoviy tartibot to‘g‘risidagi g‘oyalar. XXI asrga kelib shakllangan xalqaro globallashuv to‘g‘risidagi konsepsiyalar, “demokratik imperiya” g‘oyasining mohiyati (S.Braun, R.Falk, S.Telbot).

### **Xalqaro munosabatlar tizimi**

Xalqaro munosabatlar tizimi haqida tushuncha. Xalqaro munosabatlarda global, mintaqaviy va submintaqaviy darajalar. Xalqaro munosabatlar sub’ektlari. «Kuchlar muvozanati» qonuniyati. Davlatlar rivojlanishining ekstensiv va intensiv turlari. «Bufer davlatlar». Xalqaro va milliy xavfsizlik. Davlatlar tashqi siyosatlarining asosiy omillari (iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, harbiy salohiyat).

Xalqaro munosabatlarni tadqiq etishda geosiyosiy yondashuv. Xalqaro munosabatlar tizimining zamonaviy tuzilishi: siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy va harbiy yo‘nalishlari. Xalqaro munosabatlarni modellashtirish g‘oyasining ilgari surilishi (AQShlik siyosatshunos M.Kaplanning g‘oyalari). Xalqaro munosabatlarda “kuchlar balansi” g‘oyasini asoslanishi. Xalqaro munosabatlarda “erkin bipolyar tizim” g‘oyasini asoslanishi. Xalqaro munosabatlarda “veto tizimining” tutgan o‘rni. Xalqaro munosabatlarda “qattiq bipolyar tizim” g‘oyasini amalga oshirilishi. Ko‘p qutbli dunyo nazariyasi va uni amaliyotga joriy qilishdagi muammolar (S.Xoffman g‘oyalari). Xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro konfliktlar muammosi (kanadalik olim A.Rappoportning siyosiy g‘oyalari). Xalqaro mojarolarning asosiy bosqichlari to‘g‘risidagi g‘oyalar.

### **Harbiy strategik jarayonlar va iqtisod**

Zamonaviy xarbiy salohiyat konsepsiyasi. Har bir davlatning geografik-hududiy joylashuvi uning harbiy- strategik salohiyatining muhim omillaridan biri sifatida. Harbiy bloklarning siyosiy jabhasi va jahon siyosiy xaritasida ularning geografik joylashuvi. Geografik-siyosiy mojarolarning klassifikatsiyasi. Hozirgi davrda regional harbiy mojarolar. Mamlakat mudofaasini mustahkamlash masalasi va davlat xavfsizligini ta‘minlash. Harbiy doktrina, uning mohiyati va siyosiy - mafkuraviy yo‘nalishi. Harbiy tahdidni bartaraf etish yoki davlat suverenitetini mustahkamlash tashqi siyosiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida.

### **Jahon sivilizatsiya jarayonlari va ularning geosiyosatga ko‘rsatayotgan ta‘siri**

«Sivilizatsiya» tushunchasi va zamonaviy sivilizatsion jarayonlar. «Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi» «Tarix intihosi» konsepsiyalari. Yer shari aholisining turli milliy-etnik va irqiy guruhlariga bo‘linishi hamda ular o‘rtasidagi Geosiyosat to‘siqlari. Hozirgi jahondagi integratsiya tamoyillari va muxolifliklar.

Davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitlik va milliy-etnik jarayonlarning sivilizatsion o'lchami. Inson hayotidagi turli jabhalarning baynalmilallashuv jarayoni va turli millatlarning yangi geosiyosat jarayonga nisbatan moslashuvi muammolari. XXI asr bo'sag'asida bir qator milliy mustaqil jahon siyosiy xaritasida paydo bo'lishi va ularning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlari.

Ko'p qutbli dunyoni shakllanishi to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar (G.Morgentauning g'oyalari). Neoglobalizm to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar. J.Amsell', I.Vallerstayn, N.Xomskiylarning zamonaviy globallashuv to'g'risidagi g'oyalari.

### **Xalqaro munosabatlarning qonuniyatlari**

Xalqaro munosabatlar sohasidagi qonunlarning tavsifi. Xalqaro munosabatlar qonuniyatlarining mohiyati. Xalqaro munosabatlar qonuniyatlarini tadqiq qilishda J.-B.Dyurodel, R.Aron, G.Morgentau, J.Vernan, S.Xoffman, J.Rozenau, E.Luard, R.Boski va boshqalarning roli. Xalqaro munosabatlarning universal qonuniyatlari. Davriy- oraliq va tizimiy-funksional me'zonlar. Asosiy qonuniyatlarning harakat qilishi. Integratsiya va dezintegratsiya. Emmigratsiya siyosiy munosabatlarning beqaror omili sifatida.

### **Xalqaro munosabatlarning an'analari va paradigmalari**

Nazariy an'analar uzoq tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida. Fukidid, Sitseron, T.Gobbs, T.Lokk, D.Yum va I.Kant xalqaro munosabatlarning tarixining asoschilari sifatida. Fukididning «Pelopones urushi» va unda xalqaro ixtiloflar tushunchasi. N.Makkiavelli va K. fon Klauzevitsning mumtoz nazariyalari. B.Spinozaning siyosiy muvozanat nazariyasi. G.Grotsiyning liberal-idealistik an'anasi. Kanonik paradigma va uning g'oyaviy-nazariy manbalari. Siyosiy realizmning asosiy qoidalari. «An'anaviychilar» va «modernistlar» o'rtasida siyosiy realizmning o'rni xususida bahslar.

I.Betnamning xalqaro munosabatlarni qayta qurish g'oyasi. F.Ratsel va R.Chellen tomonidan geosiyosat g'oyasining asoslanishi. X.Makkinderning geosiyosat borasidagi qarashlari. Xartlend nazariyasining asoslanishi. K.Xausxofer tomonidan "mamlakat hududini kengaytirish" g'oyasini ilgari surilishi. S.Koenning geosiyosat va geostrategiya haqidagi g'oyalari. V.Vilsonning xalqaro munosabatlarni qayta qurish borasidagi g'oyalari. R.Arronning xalqaro munosabatlarda siyosiy realizm borasidagi g'oyalari.

### **Xalqaro munosabatlar nazariyasining zamonaviy maktablari va yo'nalishlar**

Neorealizmning vujudga kelishi va rivojlanishi, uning asosiy qoidalari. Xalqaro munosabatlarning tizimi. Xavfsizlik majmuasi. «Ikki davlat nazariyasi». Neoliberalizm va uning me'zonlari. Xalqaro munosabatlarning iqtisodiy va ahloqiy jihatlari. Neorealizmda huquq va erkinliklarning o'zaro nisbati. Neorealizm va neoliberalizm bahsida asosiy muammolar. Davlatlararo hamkorlik,

mutloq va nisbiy foyda, davlat maqsadlarning ustuvorligi, xalqaro tartibot masalalari. Xavfsizlik muammosi. Gegemonistik barqarorlik nazariyasi. Xalqaro tartibotlar nazariyasi. Mehnat taqsimoti va milliy iqtisodiyotlarning konvergentsiyasi. «Jahon-iqtisodiyot». «Giperliberalizm». Xalqaro munosabatlarning sotsiologiyasi.

F.Fukuyamaning “tarixning intihosi” g‘oyasining mohiyati. I.Vallerstaynning xalqaro munosabatlarda iqtisodiyotning o‘rni to‘g‘risidagi g‘oyalari. S.Xantingtonning “birodar mamlakatlar sindromi” haqidagi g‘oyalari hamda “sivilizasiyalar to‘qnashuvi” g‘oyasining mohiyati. Z.Bjezinskiyning “XXI asr arafasidagi global tartibsizlik” asarining mohiyati.

### **Xalqaro tizimlar**

Tizimiy nazariyaning asosiy tushunchalari: tuzilish, unsur, atrof, tizim chegarasi, vazifa, jarayon, tizim osti. Xalqaro munosabatlarning tahlilida tizimiy yondashuvning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari. Xalqaro tizim ijtimoiy tizim sifatida. Xalqaro tizimlarda ijtimoiy guruhlar. Siyosiy munosabatlar-xalqaro tizimning markazi sifatida. «Suverenitetlarning plyuralizmi». Xalqaro tizimlarni o‘rganishda asosiy yondashuvlar: an‘anaviy-tarixiy, tarixiy-sotsiologik, evristik, aralash va empirik. Xalqaro tizimlarni turkumlashning farqlari va mezonlari. Umumplanetar va mintaqalararo tizimostidagilar. Iqtisodiy, harbiy-siyosiy, strategik va boshqa xalqaro tizimlar. Xalqaro tizimning barqaror va beqaror, ixtilofli va birlashuvchan, ochiq va yopiq turlari. M.Nikolson va M.Kaplanlarning xalqaro tizimlar tipologiyasi. Xalqaro tizimlar amal qilish va o‘zgarish qonunlari.

### **Xalqaro munosabatlarning ishtirokchilari**

Davlatning xalqaro munosabatlar ishtirokchisi sifatida mohiyati va roli. Davlat - xalqaro munosabatlar tizimining asosiy aktori. Davlatning kelib chiqishi, vazifalari va tarixiy shakllari. Millat genezisining omillari. Milliy mafkura va milliy birdamlik. Milliy-davlat suverenitetining ichki va tashqi jihatlari. Milliy davlat suverenitetining natijalari. Xalqaro munosabatlarning stratifikatsiyasi. Superdavlatlar, buyuk davlatlar, o‘rta davlatlar, kichik va mikro davlatlar. Ularning xususiyatlari. Xalqaro munosabatlarning nodavlat ishtirokchilari. Hukumatlararo, nohukumat tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar. Hukumatlararo tashkilotlarning xususiyatlari va tipologiyasi. Xalqaro nohukumat tashkilotlarining umumiy tavsifi va turlari, xalqaro munosabatlarni shakllantirishda ularning roli. Transmilliy korporatsiyalarning xususiyatlari. Umumbashariy muammolarni yechishda hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar hamda transmilliy korporatsiyalarning ishtiroki.

Xalqaro globallashuvning chuqurlashuvi sharoitida “milliy suverenitet” masalasining yangicha talqin qilinishi. Xalqaro munosabatlar tizimida NATOning tutgan o‘rni. Xalqaro munosabatlar tizimida Shanxay hamkorlik tashkilotining tutgan o‘rni. Xalqaro munosabatlarda katta yigirmatalik (G20)ning tutgan o‘rni. Xalqaro munosabatlarda BRIKSning tutgan o‘rni. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining maqsadlari, vositalari va strategiyasi

«Maqsad» kategoriyasi tahlili. Uning tushunchasi va ta'riflari. Xalqaro munosabatlar maqsadlarining klassifikatsiyasi: asosiy va ikkilamchi, erishish mumkin bo'lgan va erishish mumkin bo'lmagan, qisqa muddatli, uzoq muddatli, istiqbolli va boshqa ko'rinishlari. Maqsadlarning geosiyosiy mezonlari va uning ko'rinishlari. Maqsadlarning ahamiyati bo'yicha tipologiyasi. Maqsadlar va manfaatlar. Maqsadlarga erishish vositalari va ularning xilma-xilligi. Vositalar tipologiyasining mezonlari. Maqsad va vositalarning o'zaro nisbati. Davlatning mangu maqsadlari (R.Aron). Maqsadlar haqida neoliberal va neorealislarning taassurotlari. Maqsadlarga erishishda qadriyatlar o'rnini haqida konstruktivizm, kulturalizm va liberal demokratiya nazariyalari. Yangi idealizm. Strategiya maqsad va vositalarning birlashishi sifatida. «Strategiya» kategoriyasi. Strategiyaning xususiyatlari va unsurlari. Katta strategiya. Nizolarni hal qilish strategiyasining asosiy qoidalari. Himoya va hujum strategiyalari. Tinchlik va tinchlikparvarlik strategiyasi. Xalqaro siyosatda diplomatiya va strategiya. Diplomatiyaning funktsiyalari. Maqsad va vositalar tarkibida kuchva zo'ravonlik. «Kuch» kategoriyasi va uning muammosi. Kuch, qudrat, hokimiyat.

### **Globallashuv zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida**

«Globallashuv» va «global siyosiy rivojlanish» tushunchalari. Globallashuvning asosiy xarakteristikasi. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari. Globallashuvdan kelib chiqadigan jahon siyosatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari.

### **Zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalari**

«Jahon tartiboti» tushunchasi. Vestfaliya tizimining transformatsiyasi. «Bir qutbli», «ikki qutbli», «ko'p qutbli», «mintaqaviylashgan» Dune tartibotlari. Har bir kontsepsiyaning kuchli va zaif tomonlari. Xalqaro rejim tushunchasi. Jahon siyosiy tarkibining o'zgarishi. Jahon tartibotini yaratishning asosiy muammolari.

### **Jahon hamjamiyati va jahon siyosati**

«Jahon hamjamiyati» va «jahon hamjamiyati fikri» tushunchalari. Jahon hamjamiyati to'g'risidagi realistik va idealistik tasavvurlar.

### **Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash**

Jahon siyosatida «hokimiyat» tushunchasi. Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash nima degani? Hokimiyat uchun kurashning shakllari, maqsadlari va uslublari. Millat va davlat qudrati tushunchalari. Qudratli davlatlar siyosati.

### **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi jahon siyosiy tizimda**

SSSRning yemirilishi arafasidagi xalqaro vaziyat. 1985-1991 yillarda Sovet Ittifoqidagi ichki siyosiy jarayon. 1991 yil siyosiy inqirozi va GKChP tuzilishi. SSSRning yo'q qilinishi va MDHning tuzilishi. MDHning rivojlanish muammolari va istiqboli. Sobiq sovet makonining geosiyosiy transformatsiyasi; MDH va G'arb. MDHda siyosiy jarayonning inqirozi.

### **Jahon siyosatida ko'p tomonlama formatlar**

BMT, EXHT, NATO, ShHT, KMO, «Buyuk sakkiztalik», SENTO, SEATO, ANZYuS, ANZYuK, alyanslar, bloklar, ittifoqlar, sherikliklar, koalitsiyalar.

### **Zamonaviy dunyoda integratsion jarayonlar**

Zamonaviy dunyoda mintaqaviy integratsiya hodisasi. Integratsion jarayonning asosiy qonuniyatlari. Integratsiya nazariyasining asosiy maktablari. Mintaqaviy integratsiya misollari (EI, NAFTA, MERKOSUR, Magrib, ASEAN).

### **Xalqaro terrorizmga qarshi kurash va jahon siyosati**

Terrorizm va terrorchi faoliyat tushunchalari. Yirik terrorchi tashkilotlar. Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro konvensiyalar. Xalqaro terrorizmning geosiyosiy o'lchami. Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash.

### **Jahon siyosiy jarayonida jahon iqtisodi muammosi**

Merkantilizm, iqtisodiy liberalizm, marksizm va qaramlik nazariyasi. Bretton-Vud tizimi. Transmilliy korporatsiyalar (TMK). Xalqaro savdo. Xalqaro moliya institutlari (JB, XVJ).

### **Jahon siyosati va xalqaro xavfsizlik**

Xalqaro xavfsizlik tushunchasi. «Sovuq urush» tugaganidan so'ng xalqaro xavfsizlikka noan'anaviy tahdidlar ko'payishi. Keng qamrovli xalqaro xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilinishi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda qudratli davlatlar va xalqaro tashkilotlarning roli. Xavfsizlikning bo'linmasligi. Qurolsizlantirish masalalari.

### **Zamonaviy dunyoda AQShning global strategiyasi**

AQShning missionerligi. AQShning izolyatsionizmi va globalizmi. AQShning XX asr boshida, Ikkinchi jahon urushidan so'ng, «sovuq urushi»dan so'ngi global strategiyasi. AQShning harbiy, iqtisodiy va siyosiy qudrati. Monro, Vilson, Ruzvelt, Trumen, Kennan, Nikson-Kissinjer, Karter, Reygan, Bush doktrinalari. Vashington va Nyu-York shaharlarida 11 sentyabr 2001 yil sodir bo'lgan terrorchilik hurujlar. Prezident Bush ma'muriyatining yangi Milliy xavfsizlik strategiyasi.



## **Jahon siyosatida Rossiya Federatsiyasi**

Rossiyaning yerlar yig'ish natijasida shakllanishi. Rossiya Sovet Ittifoqining poydevori sifatida. Rossiya davlat-mintaqa sifatida. Rossiya MDHning poydevori sifatida. Rossiyaning tashqi siyosiy tafakkurida g'arbiy, sharqiy, demokratik va neoimperiyachilik oqimlari. RFning dunyo yetakchi davlatlari bilan munosabatlari. RFni «Buyuk sakkiztalik»ka kirishi. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosati. Rossiyaning demokratik geosiyosati muammosi.

### **Xitoy jahon siyosatida**

Mao Dzedun merosi. Den Syaopin islohotlari. Xitoyning buyuk davlat sifatida shakllanishi. Xitoyning yaxlitligi muammosi, «bir davlat, ikki tizim» konsepsiyasi. Xitoyning dunyo yetakchi davlatlari bilan munosabatlari. Xitoy geosiyosati. Xitoyning Markaziy Osiyodagi siyosati.

### **Hindiston jahon siyosatida**

Hindiston va buyuk davlatlar. Hindiston va mintaqaviy qudratli davlatlar. Hindistonning buyuk davlat maqomiga da'vogarligi. Hindiston yadroviy davlat sifatida. Qo'shilmaslik harakati. Gandizm. Hindiston va Markaziy Osiyo.

### **Jahon siyosatida shaxs roli**

(Wilson, Lenin, Gitler, Stalin, Ruzvelt, Cherchill, Kennedi, Xrushev, de Gol, Arafat, Xuseyn, Xomeyni, Gandi, Karter, Gorbachev, Reygan, Bush, Den Syao Pin).

### **Jahon siyosati va Markaziy Osiyo**

MO mamlakatlarining mustaqillikka erishishi. G'arb davlatlarining MO mintaqasidagi manfaatlari. AQSh-RF-XXR «geosiyosiy uchburchak»ning shakllanishi. MOning geosiyosiy transformatsiyasi. Ijobiy va salbiy diversifikatsiya. O'R va AQSh; O'R va EI; O'R va RF; O'R va Yaponiya orasida strategik shekriklik munosabatlari. «Turkiston – umumiy uyimiz» konsepsiyasi. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsiyasi.

### **Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari va O'zbekiston Respublikasi hissasi**

Xavfsizlikni ta'minlashning yangi konsepsiyalar. Globalizatsiya fenomeni va xavfsizlik muammolari. Zamonaviy sharoitda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash shartlari. Ushbu mavzu tinchlikka tahdid, xususan terrorizm tahliliga bag'ishlangan. Leksiyada terrorizm, terror psixologiyasi fenomenlarning analizi konsepsiyasi taqdim etilgan. Ma'ruzada ushbu hodisaga qaratilgan turli

omillarning nuqtai nazari, hamda terrorizmning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va sivilizatsion omillar berilgandir.

### **O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha olib borayotgan siyosati va amalga oshirayotgan sa'y harakatlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash borasidagi olib borayotgan konstruktiv siyosati. Markaziy Osiyo xavfsizligi va uni ta'minlashda yurtimiz rahbariyatining tutgan o'rni. Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdid solayotgan global tahdidlar va asosiy omillar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdagi xizmatlari. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining BMT bilan rivojlantirayotgan hamkorligi. Jahon hamjamiyatining bu boradagi rahbariyatimiz olib borayotgan siyosatiga berayotgan bahosi.

### **O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Tashqi siyosatda milliy davlat manfaatlari. Ko'pqirrali tashqi siyosatimizning mohiyati va uning O'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati hamda jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasining erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatlari, kelgusidagi uning oldida turgan vazifalar. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy diplomatiyasi: yutuqlar, muammolar. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy, xalqaro va global muammolarni hal etishdagi tutgan o'rni, tashabbuslari va faoliyati.

### **Davlatimizning parlament diplomatiyasi**

Parlament diplomatiyasi va uning mohiyati. Oliy Majlisning xalqaro faoliyati. Oliy Majlisning tashqi siyosiy masalalar komiteti faoliyati va uning tashqi siyosat masalalarini hal etishda tutgan o'rni. Oliy Majlisda xalqaro –huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni ratifikatsiya qilish, yuzaga kelaetgan global muammolarga munosabat bildirish. Oliy Majlisning xalqaro faoliyati. O'zbekiston Respublikasi parlamentining xalqaro parlament tashkilotlari bilan hamkorligi.

### **Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining transport diplomatiyasi**

Transport diplomatiyasi va uning mohiyati. Transport diplomatiyasining mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy xayoti uchun ahamiyat. O'zbekistonda transport diplomatiyasini rivojlantirishga bo'lgan ahamiyat. Buyuk Ipak yo'li va uning mintaqaviy integratsiyada tutgan o'rni. Transport diplomatiyasining rivojlanish istiqbollari.

## **O'zbekistonning BMT dasturlari bilan hamkorligi**

O'zbekiston Respublikasining BMT bilan hamkorligi. O'zbekiston - BMT Taraqqiyot Dasturi hamkorligidagi asosiy yo'nalishlar. BMT TD ning O'zbekistonda o'tkazilayotgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy –iqtisodiy islohotlarda hamga inson taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyat. BMT ning yurtimizda amalga oshirgan va oshirayotgan loyihalari va ularning ahamiyat. O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni himoya qilishdagi siyosati, uning amaliy sa'y harakatlari va xalqaro hamkorligi. O'zbekiston - BMT Taraqqiyot Dasturi hamkorligining istiqbollari.

## **OTOM davlatlari zamonaviy xalqaro munosabatlarda**

OTOMning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli. Yangi sanoatlashgan davlatlar. Osiyo Tinch Okeani mintaqasining imkoniyatlari. Mintaqa davlatlarining iqtisodiyoti. Osiyo Tinch Okeani mintaqasining submintaqalari. Markaziy Osiyo davlatlari va Osiyo Tinch Okeani mintaqasi.

## **Osiyo regionalizmining xususiyatlari**

Mintaqaviy integratsion maydondagi asosiy o'yinchilar: AQSh, Yaponiya va Xitoy. Submintaqaviy iqtisodiy integratsiyanin rivojlantirish konsepsiyasi. Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya bojxona ittifoqi. Shimoliy Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy “beshburchak”. Shimoliy Sharqiy Osiyodagi erkin savdo hududi. Osiyo valyuta jamg'armasini ta'asis etish.

## **XXR va Osiyo regionalizmi**

XXRning tashqi siyosiy maqsadlari. OTOM mintaqasi xalqaro munosabatlarida XXRning o'rni. XXR Janubiy Sharqiy Osiyodagi siyosati. Xitoy va ASIAN davlatlari. Yaponiya-Xitoy munosabatlari: XXI asr boshlanishida o'zaro munosabatlar natijalari. Ikki davlatning iqtisodiy raqobati. Xitoyning Koreya yarim oroli davlatlari bilan munosabatlari.

## **Yaponiya xalqaro munosabatlar tizimida**

OTOM mintaqasi xalqaro munosabatlarida Yaponiyaning o'rni. Yaponiya xalqaro maqomini ko'tarish muammolari.

## **Koreya Respublikasi xalqaro munosabatlar tizimida**

OTOM mintaqasida Koreyaning o'rni. Koreya Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari. Koreya mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi roli. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'zaro aloqalardagi muammolari. Koreya birlashuvi muammosi.

## **Yevropa davlatlaridagi mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari**

Evropa qit'asining mintaq va submintaqalarga geosiyosiy va jug'rofiy bo'linishi. EI: maqsadi, vazifalari va faoliyati tamoyillari. Yevropa Ittifoqining rivojlanish muammolari. YI mintaqaviy siyosatining shakllanishi. Maastrix jarayoni va 1980 yillar oxiri - 1890 yillar boshlarida YI mintaqaviy siyosatining radikal islohotlari. EI mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalish va prinsiplari.

## **Arab davlatlari xalqaro munosabatlar tizimida**

Fors ko'rfazi monarxialari. Arab Mag'ribi davlatlari. Arab mamlakatlari siyosatida neft omilining ahamiyati. Mintaqaviy integratsion birlashmalar. ADL, Islom Hamkorlik Tashkiloti.

## **Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar**

Dunyo sivilizatsiyasining boshlanish o'chog'i ham aynan shu mintaqaga to'g'ri keladi. Ilk davlatchilik ko'rinishlari ham shu mintaqaga tegishlidir. Yaqin Sharq ko'p hollarda "jahonning chorrahasi" deb nomlanmoqda. Bu atama dunyo aholisining yarmi sig'inadigan uchta din: Xristian, Islom va Yahudiy dinlarining kelib chiqish mintaqasi hisoblangani uchun berilgan. Shuningdek Yaqin Sharq Hindiston, Uzoq Sharq, Sub-Sahara Afrika va Janubiy-sharqiy Yevropaga kirish darvozasi hisoblanadi. Bu esa mintaqaning geosiyosiy jihatdan yirik davlatlar manfaatlari to'qnashuvi markaziga aylanishi uchun yetarli asos hisoblanadi va bugungi kunda ham strategik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan muhim mintaq bo'lib qolmoqda.

## **Fors ko'rfazi mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. SAP tashqi siyosati shakllanishining asosiy jihatlari**

Fors ko'rfazi mintaqasi geosiyosiy, geoiqtisodiy va geostrategik nuqtai nazaridan juda qulay yerda joylashgan. Mazkur hududga – Eron Islom Respublikasi, Iroq va olti arab davlatlari: Saudiya Arabistoni Podshohligi, Bahrayn, Qatar, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliklari va O'mon Sultonligi kiradi. Fors ko'rfazi davlatlari ikki okean va uch qit'a oralig'ida joylashgan bo'lib, zamonaviy jahon aloqalarida Afrika va Osiyo o'rtasida bir ko'prik vazifasini bajaradi. Ular jahon bozorida tobora ehtiyoj kuchayib borayotgan energetika va turli tabiiy resurslarga boy davlatlar hisoblanadi. Saudiya Arabistonining tashqi va milliy xavfsizlik siyosati uch asosiy maqsadga suyanadi: mamlakatning ichki va tashqi hayoti jabhalarini islom dini ta'limoti asosida boshqarish; mamlakatning hududiy xavfsizligi va iqtisodiy boyligini himoya qilish; mamlakat hukmron tuzimini saqlash. Saudiya Arabistoni tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari bu boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, Podshohlik suverenitetini va hududlari yaxlitligini himoya etish, Podshohlikning Fors ko'rfazi, arab dunyosi va musulmon olamidagi mavqeini mustahkamlash, sanoati rivojlangan yetakchi davlatlar bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

## **Afrika davlatlarida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar**

Bugungi kunda Afrika jahon hamjamiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Mazkur "uyg'onayotgan qit'a" oldida bir qator murakkab geosiyosiy muammolar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari uzoq, ko'p asrli tarixga ega, masalan mustamlakachilik, ish savdosi va h.k., ayrimlari yaqinda paydo bo'ldi yoki kuchayib ketdi, nisbatan kichik davrni o'z ichiga oladi, chunki SSSRning parchalanib ketishi bilan jahon geosiyosiy kuchlarining balansi o'zgardi, bu esa shak-shubhasiz, mazkur qit'adagi hayotning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida namoyon bo'ldi. Afrika xalqlari nisbatan yaqinda siyosiy mustaqillikka ega bo'lishdi, biroq iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ularning ko'pchiligi hamon haqiqiy ijobiy o'zgarishlarni his etishganlaricha yo'q.

Afrika mamlakatlari mustamlakachilik zulmidan xalos bo'lgach, ularning ko'pchiligida vesternizatsiya (g'arblashtirish) konsepsiyasi, ya'ni ularning G'arb, xususan AQShning ijtimoiy institutlari, huquq etalonlariga orientatsiyasi qo'llab-quvvatlanmadi.

## **Diplomatik faoliyatni amalga oshiruvchi davlat idoralarining tizimi**

Tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi davlat idoralari tizimi. Davlat rahbarining tashqi aloqalarni amalga oshirishdagi roli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari. Parlament vakolatlari. Hukumat vakolatlari. Tashqi ishlar mahkamasi tushunchasi. Tashqi ishlar mahkamasining vakolatlari, vazifalari va funksiyalari va ichki tuzilmalari. Tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi davlatning boshqa idoralari.

## **Diplomatik vakolatxonalar va diplomatik vakillarning huquqiy maqomi**

